

## AUDIT KOMPANIYASINI TANLASH BO‘YICHA E’LON

**Loyiha nomi:** “Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish” loyihasi

**Moliyalashtirish manbai:** Osiyo taraqqiyot banki (OTB)

**Shartnoma raqami:** SCEEP/FA2 – Moliyaviy audit (2024–2026-moliya yillari)

**E’lon sanasi:** 2025-yil 9-aprel

“Qattiq maishiy chiqindilarni barqaror boshqarish” loyihasining ijro etuvchi agentligi – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Qattiq chiqindilarni barqaror boshqarish” Loyihalarni boshqarish guruhi davlat muassasasi, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) tomonidan moliyalashtirilayotgan loyiha uchun 2024–2026-moliya yillari bo‘yicha tashqi moliyaviy auditni amalga oshirish uchun malakali auditorlik kompaniyasini tanlash jarayoni boshlaganini e’lon qiladi.

Audit quyidagilarga muvofiq amalga oshiriladi:

- Xalqaro audit standartlari (ISA);
- Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS);
- OTBning loyiha moliyaviy boshqaruvi bo‘yicha ko‘rsatmalari.

### Malaka talablari:

- Oxirgi 3 yil davomida **kamida uchta (3 ta)** hajmi va turi bo‘yicha ushbu shartnoma talablariga o‘xshash xizmat ko‘rsatganlik tajribasiga ega bo‘lish hamda tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lish;
- Xalqaro moliyaviy institutlar (OTB, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqalar) tomonidan moliyalashtirilgan xizmat shartnomalarini bajarish tajribasiga ega bo‘lish;
- Ariza topshirish sanasiga qadar **kamida 10 yil (2015-yildan boshlab)** ushbu sohada uzluksiz faoliyat yuritayotgan bo‘lishi;
- Yuqoridagi shartlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar taqdim etilishi lozim (ro‘yxatdan o‘tganlik guvohnomasi, shartnomalar, tavsianomalar, XMI mijozlaridan xat va h.k.);
- OTBning korrupsiyaga qarshi siyosatiga zid keluvchi holatlarda qatnashmagan bo‘lishi, shuningdek, BMT Xavfsizlik Kengashining VII bobiga muvofiq chiqarilgan ta’qiqlarga duch kelmagan bo‘lishi lozim.

### Ariza topshirish muddati:

Tijorat takliflari **2025-yil 23-aprel soat 15:00 (Toshkent vaqti)** ga qadar quyidagi manzilga yopiq konvertida topshirilishi kerak:

#### Manzil:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 7a-uy, 100043, O‘zbekiston Respublikasi

**Elektron pochta:** [sswm@sanitation.uz](mailto:sswm@sanitation.uz)

**Telefonlar:** +998 99 855 55 40, +998 97 758 74 34

Takliflar ochilishi **2025-yil 23-aprel, soat 15:30 da** yuqoridagi manzilda, ishtirok etishni xohlagan kompaniyalar vakillari ishtirokida ochiq tarzda o‘tkaziladi.